

SADRIDDIN AYNIIY FAOLIYATINING ILMIY VA IJODIY MOHIYATI BORASIDAGI MULOHAZALAR

Imomova Gulnoza Shavkatovna

Sadriddin Ayniy uy muzeyi katta ilmiy xodimi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ma’rifatparvar Sadriddin Saidmurodxo’ja o’g’li Ayniyning faoliyatiga mansub bo’lgan ilmiy, badiiy asarlari hamda uning publisistika sohalarida olib borgan salmoqli ishlari hamda tadqiqotlari haqidagi ilmiy ma’lumotlar yoritilgan bo’lib, bilim olishning jamiyat hayotidagi ijtimoiy va ilmiy yo’nalishlari haqida ham tuxtalib o’tilgan. Adibning ilm-fan sohasining ijtimoiy yo’nalishdagi barcha sohalarida ijodiy faoliyatiga ham tuxtalib ma’lumotlar yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *Publisistika, hajviya, felyeton, pamflet, eski ta’lim usullari, jadidchilik-ma’rifatparvarlik g’oyalari, innovatsion ta’lim usullari.*

Kirish. Ma’rifatparvar Sadriddin Saidmurodxo’ja o’g’li Ayniy faoliyati va ijodi bilan maktab yaratgan dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan munosib e’tirof etilgan adib hisoblanadi. Mustaqillik davrida milliy davlatchilik an’analari qayta tiklash, milliy o’zlikni anglash, xalqimizning moddiy va ma’naviy meros namunalarini xolis o’rganish imkoniyati yaratildi. Ma’rifatparvar ziyolilarning ibratli hayot yo’llari, tarixiy qarashlarini zamon talablari asosida tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O’z davrida jadidchilik harakatida faol qatnashish barobarida murakkab tarixiy jarayonlarning ishtirokchisi sifatida faoliyat olib borgan adib Sadriddin Ayniydir.

Adabiyotlar tahlili. Sadriddin Ayniy ijodiy faoliyatini o’rganish va uning asarlarini keng targ’ib etish borasida Jalol Ikromiy, Z.Mullojonova, Rahim Hoshim, Xolida Ayniy, S.Tabarov, akademik Muhammadjon Shakuriy Buxoriyning xizmatlari kattadir.

Sobiq Sovet davrida Sadriddin Ayniyga bag’ishlab yozilgan asarlar orasida J.Azizqulov, Z.Mullojonova va N.Fayzulloyevlarning tadqiqotlarini ko’rsatish mumkin. Mustaqillik yillarida yaratilgan kollektiv monografiyalarda Sadriddin Ayniyning shaxsiyati, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, ijodi va boy ilmiy merosi, uning Buxorodagi jadidchilik faoliyati, tarixchilik iste’dodi haqida anchagina ma’lumotlar jamlangan. Sadriddin Ayniyning jadidchilik harakati mohiyatini ochib berishda F.Qosimov, D.Alimova, S.A’zamxo’jayev, Q.Rajabov, U.Rashidov, B.Hasanov, Sh.Hayitov, L.Muhammadjonova, Z.Ostonova, N.Mahkamova, K.Raxmonov, R.Tursunov, F.Bobojonova, D.Jamolova kabi tarixchi olimlar hamda S.Aliyev, B.Qosimov, O.Safarov, R.Vohidov, I.Haqqulov, U.Dolimov, N.Naimov singari tadqiqotchilarning asarlarini sanab o’tish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ma’rifatparvar Sadriddin Saidmurodxo‘ja o‘g‘li Ayniyning faoliyatiga mansub bo‘lgan ilmiy, badiiy asarlari haqidagi tadqiqotlar muhokama qilinadi. Adibning jadidchilik va ma’rifatparvarlik faoliyati va qarashlar asosida yaratilgan asarlar o‘rganilib tahlil qilindi. Ta’limda bilim olishning eskicha va yangi usuldagi bilim olish jihatlari haqidagi fikrlari tadqiqotlarida va asarlari vositasida taqqoslanadi.

Sadriddin Ayniyning ilm-fan sohasining ijodiy va ilmiy faoliyatining deyarli barcha sohaları tahlil qilindi.

Natijalar va ularning tahlili. Adib o‘zining mingga yaqin katta-kichik asarlarini tojik va o‘zbek tillarida yozdi. Uning ijodiy yo‘nalishida publisistika, hajviya, fel’yeton, pamflet, she’riyat, adabiyotshunoslik, tarixshunoslik, sharqshunoslik, romanchilik, tarjimonlik kabi janrlar asosiy o‘rinni egallaydi.

Sadriddin Ayniyning “Amir Temur binolaridan Bibixonim xarobasi ila musohaba” she’rida, sohibqiron Amir Temur tomonidan 1399-1404 yillarda qurilgan Bibixonim jome’ masjidining ulug‘vorligi va betakror me’moriy obidaning so‘nggi davrlarga kelib xaroba holiga tushib qolishi, uni oyoq - osti qilmoqchi bo‘lganlarni bahs-munozaraga chaqiradi va kelajak avlodlarga asrab-avlaylab yetkazish haqida so‘z yuritadi. Uning “Navoiy bolalari uchun” she’rida esa Turkiston bolalariga xitob qilib, ularni ilm-ma’rifat cho‘qqilarini zabt etishga chaqirdi va yosh avlodni haqli ravishda buyuk shoir Alisher Navoiyning munosib vorislari sifatida tilga oldi. Uning 1918-1925-yillarda yozgan ayrim she’rlari “Mehnatkashlar tovushi” va “Zarafshon” gazetasi sahifalarida ham nashr etilgan.

Sadriddin Ayniy chop etilgan barcha she’rlari va asarlarida kelajak avlodga o‘git bo‘larlik fikr va qarashlar keltirilgan bo‘lib, o‘tmish ajdodlar bosib o‘tgan mashaqqatli hayot yo‘lidan xulosa chiqargan holatda vatanimiz, xalqimiz, millatimiz uchun munosib bo‘lishlariga da’vat qildi.

Sadriddin Ayniy nafaqat nasr va nazmda, shu bilan birga publisistika yo‘nalishida ham samarali ahamiyatga ega bo‘lgan ijod bilan shug‘illangan. Sadriddin Ayniy publisistika yo‘nalishida o‘quvchilarga xabar va yangiliklarni tanishtirish bilan birgalikda xorijda bo‘layotgan voqea-hodisalardan tegishli xulosa chiqargan holatda vatanimizga mos farzand sifatida milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holatda faoliyat yuritishlariga chaqirdi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, adib publisistikasining o‘ziga xos jihati sifatida yurtimizda ko‘p millatli xalqlarning yashab, faoliyat yuritishlarini inobatga olgan holatda do‘stlik, millatlararo totuvlik, ijtimoiy adolatparvarlik kabi xususiyatlarni namoyon qilishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Sadriddin Ayniy Qozon, Ufa va Orenburgdan kelib, Buxoroda doimiy yashab qolgan tatar ziyolilari, ma’rifatparvarlari bilan mustahkam aloqa o‘rnatganligi ham adib ijodiy faoliyatining asosiy rivojlanish bosqichiga olib chiqdi.

Adib 1917 yilga qadar bo‘lgan davrda kichik-kichik tarixiy hikoyalar, ocherklar va maqolalar yozdi. Bu maqolalar keyinchalik, katta tarixiy tadqiqotlarning yuzaga kelishiga asos bo‘ldi. Masalan, muallif 1930-1935- yillar davomida “Buxoro amirlari va xotin-qizlar”, “Amir Muzaffar”, “Kenagaxsonim”, “Latifa”, “Mashhur Mirak”, “Amir Olimxon qochishda”, “Avliyoqulibek”, “Avliyoqulibek amirni qoziga olib bordi” kabi katta- kichik hikoyalar yaratdi[1]. Adabiyotshunos olim M.Hasanovning fikricha, Sadriddin Ayniyning shaxsiy arxivida 1922-yil yozgan “Kichik hikoyalar” qo‘lyozmasi hamon mavjud ekanligi haqidagi ma‘lumotlarni qayt etgan[7].

Adib ijodida jadidchilik-ma‘rifatparvarlik g‘oyalari va qarashlari asosiy o‘rinni egallaydi. Muallifning ushbu g‘oya va fikrlari ham ko‘pgina maqolalarida o‘z aksini topgan[2]. Adibning ma‘rifatparvarlik yo‘nalishdagi ishlari sirasiga yangi usul jadid maktablari faoliyatini tashkil etish va ularning faoliyatida jonbozlik ko‘rsatish bilan bir qatorda mazkur maktablar uchun yangi adabiyot va darsliklarni yaratib, o‘quvchilarning ta‘lim olish samaradorligini yaxshilash borasida samarali ishlarni olib bordi.

Ma‘rifatparvar olimning jadid maktablari uchun yozgan uchta darsligi “Tartil ul-Qur‘on” (“Qiroat kitobi”) “Zaruriyoti diniya” (“Diniy kitob”) va “Tahsib us-sibyon” (“Bolalar tarbiyasi”) (birinchi marta 1909 yilda, Orenburgda nashr etilgan) nomli o‘qish kitoblari nashr qilingan.

Sadriddin Ayniyning bilim olish haqidagi faoliyati va qarashlarida ta‘limning jamiyat taraqqiyotiga ta‘sirini kuchaytirish, o‘zbek xalqining madaniy va ma‘naviy yuksalishiga xizmat qilishi, milliy ta‘lim tizimini isloh qilish va bilimni hamma uchun, ayniqsa, xotin-qizlar uchun imkoniyatli va imtiyozli qilishga qaratilgan g‘oyalarni ilgari surdi. Adibning fikricha, ta‘lim nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki xalqning ozodligi va ma‘rifatli bo‘lishida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta‘kidlaydi.

Adibning insonlar hayotida bilim olishning ahamiyati haqidagi qarashlarini qo‘yidagi ijtimoiy rolini ko‘rsatish mumkin:

- ta‘limni xalqni ma‘rifatli bo‘lishdagi asosiy vosita deb bildi;
- jaholatdan qutulish va farovon hayot kechirish uchun faqat bilim olish bilangina erishish mumkinligini ta‘kidladi;
- bilimli insonlar faoliyat yuritadigan jamiyatda har qanday sohada rivojlanishga ishonch hosil qilgan;
- eski ta‘lim usullaridan voz kechib, zamonaviy va innovatsion ta‘lim usullarini joriy etish ishlarini olib borgan;
- ilmiy bilimlarni tarqatishga katta ahamiyat bergan;
- ta‘lim olish muassasalarini xalqqa xizmat ko‘rsatishlari zarurligini ilgari surdi; uvchi markazlarga aylantirishni yoqlab chiqqan.

- xotin-qizlar ta'lim olishini qo'llab-quvvatlab, ularning ham bilimli bo'lishlari jamiyat uchun zarur ekanligini ta'kidlagan.

Sadriddin Ayniy ijodida tarix ilmi ham muhim ahamiyatga ega ekanligini yozuvchining “Qullar” romanida keltirilgan fikrlari asosida ifodalash mumkin. Adibning fikricha, tarix ilmi qachon o'z ahamiyatini ko'rsatadi, qachonki kelajak avlod o'tmish voqealari va ajdodlarimizning boshidan kechirgan mashaqqatli hayot tarzidan tegishli xulosa chiqara olgandagina o'z ahamiyatini ko'rsatadi.

1921-1922-yillarda “Shu'lai inqilob” (“Inqilob shu'lası”) jurnalida “Ta'rixı amironi mang'itiya ki dar Buxoro hukm rondaand” (“Buxoroda hukmronlik qilgan mang'itlar sulolasi tarixi”) nomi bilan nashr bo'lgan tarixiy ocherk maqolalarini qayta ishlaydi. Bu asar “Ta'rixı amironi mang'itiyai Buxoro” nomi ostida 1923 yilda Toshkentda, arab imlosida, tojik tilida, alohida kitob shaklida Buxoro Maorif xalq nozirliği tomonidan nashr qilinadi[3].

Sadriddin Ayniy o'zining gazeta va jurnallarda nashr etilgan maqolalarida Buxoro madrasalaridagi o'qitiladigan eskicha diniy tahsillar, fanlarning quruq yodlatilishi va samarasizligi, ilg'or fikrlilarga qarshi bo'lgan mutaassib ruhoniylar, mullalarni o'tkir tanqid ostiga oladi.

Sadriddin Ayniy 1926-1933-yillarda Samarqanddagi Tojikiston Davlat nashriyotiga adabiy xodim bo'lib ishlaydi. O'sha yillarda mahalliy kadrlar yetishmas, adabiy xodimlar ozchilikni tashkil etar edi. Olim bu yerda ko'plab asarlarni tarjima qilish va nashrga tayyorlash ishlari bilan shug'ullandi. Jumladan, u G'arb yozuvchisi Ferdinand Dyushenning “Hilol” (“Yangi chiqqan oy”) asarini tamoman qayta ishlab, o'zgacha bir badiiy asar tarzida “Qamar” nomi bilan nashr ettirdi. Publisist yozuvchi M.Bullening “Inqilobiy

kurashlarda xotin-qizlar” asarini tarjima qildi. Viktor Gyugoning

“Sehrli saroy” asarini o'zbek tilida nashr ettirdi[9]. Sadriddin Ayniyni mazkur asarlar tarjimasi asosida xalqimiz ma'naviy dunyoqarashiga munosib hissa qo'sha oladigan vazifalarni bajardi.

Sadriddin Ayniy ulkan lug'atshunos olim sifatida ham mashhurdir. Adib tojik va o'zbek adabiy til normalari to'g'risida, tilning badiiy adabiyotdagi roli haqida ko'plab ilmiy maqolalar yozdi. S.Ayniy har bir millatning bosh belgisi hisoblangan tilning sofliги va qimmatlilik jihatlariga alohida e'tibor bergan.

Adibning amir hukumati tomonidan xalqqa nisbatan yuritgan vaxshiyona siyosatini yoritgan “Buxoro jallodlari” povesti 1920-yili o'zbek tilida yozilgan. Asar keyinchalik, “Buxoro jallodlarining suhbatlari” nomida “Inqilob” jurnalida bosildi va 1935-yil tojik tilida alohida kitob holida nashr qilinadi[4].

Sadriddin Ayniyni xalqimiz turmush tarzi va amirlik tuzumida boshdan kechirgan ijtimoiy adolatsizliklarni ko'rsatgan real voqealardan tubdan farq qilmaydigan asari - “Odina

yoki bir kambag‘al tojikning sarguzashti” 1924-1926-yillarda yozilgan bo‘lib, uning ba’zi parchalari o‘sha vaqtdayoq “Ovozi tojik” gazetasida bosilib chiqqan[5].

Sadriddin Ayniy ilmiy-ijodiy faoliyatida yirik tarixiy-adabiy asari hisoblangan “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” kitobi alohida o‘rin egallaydi. Mazkur asar adib ijtimoiy-ilmiy faoliyatining asosiy yo‘nalishi hisoblangan ma‘rifatparvarlik faoliyati haqidagi asar hisoblanib, unda xalqimiz hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ta‘lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi faoliyati yoritilgan[6].

Sadriddin Ayniy amirlik tuzumi ag‘darib tashlangach, 1920 yilning 16 noyabrida Samarqanddan tug‘ilgan yurti Buxoroga keladi. Adib bu safari to‘g‘risida hikoya qilar ekan, Maorif noziri Qori Yo‘ldosh Po‘latov uni iliq qabul qilganligini alohida ta’kidlaydi. Qori Yo‘ldosh Po‘latov uning 1918-yilda, inqilob tarixiga oid tojik tilida yaratgan ilk yirik tarixiy asari - “Tarixi inqilobi fikri dar Buxoro”ni (“Buxoroda fikriy inqilob tarixi”) o‘zbek tiliga o‘girishni tavsiya qildi. Muallif, o‘sha tojik tilidagi materiallarni o‘zbek tilida o‘girib, qayta ishlab, “Mehnatkashlar tovushi” gazetasida inqilob tarixiga oid chop bo‘lgan turkum maqolalarni ham unga qo‘shib yangi ma‘lumotlar bilan to‘ldirdi va 600 sahifadan iborat bo‘lgan “Buxoro inqilobining tarixi” deb, unga qayta nom beradi.

Adibning mazkur asari haqida Nazir To‘raqulov yozgan kitob so‘zboshisini quyidagi fikrlarni bildirgan: “Ayniyning “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” degan bu asarini buyuk shodliklar bilan mamlakatga taqdim etamiz. O‘rta Osiyoning har bir yoshi, har bir haqiqiy inqilobchisi o‘qib, Buxoro o‘lkasida yaqindagina bo‘lib o‘tgan razolatlarning hikoyasini bir-bir ko‘zdan kechirib, ma‘naviy, axloqiy foydalar topar degan umiddamiz bor”[6].

Sadriddin Ayniy oddiy xalq turmush tarzini ko‘rsatib bergan roman janriga mansub asari “Doxunda” hisoblanadi. Xalqimizni amirlik tuzumi adolatsizliklari va amaldorlarning nohaqliklari borasidagi voqealarni yoritib, ularni bunday og‘ir turmush tarzidan qutqarish uchun ishchilarni birlashgan holatda harakat qilishlari zarurligi, jamiyatda asosiy rivojlanish bosqichini belgilab beruvchi xotin-qizlar savodxonligini oshirish va ularni jamiyatdagi mavqelarini mustahkamlash borasidagi g‘oyalarni ilgari surdi.

Sadriddin Ayniy 1939-yilda o‘zining “Sudxo‘rning o‘limi” asarini yaratdi. Adibning “Sudxo‘rning o‘limi” asari amaldorlarning xalqimizning qiyin ahvolidan foydalangan holatda ularni iqtisodiy tang ahvolidan qutqarish borasida va‘dalar bergan holatda qarz domiga tushirib ularni tunashni maqsad qilgan kimsalarning adolatsizliklari borasidagi voqealar yoritib berilgan. Adib asar orqali o‘quvchini bilim olishga chaqirdi, zero bilim sohiblarigina o‘z mavqei va ilmini davr qiyinchililariga qaramay saqlab qoldi, mol-dunyo to‘plash o‘tkinchi havas ekanligiga, unga vuju quyganlar faqat jaholat domiga tushib atrofdagilar va hattoki o‘z hayotiga ham putur yetkazganligi haqidagi qarashlarni ta’kidlab o‘tdi.

Xulasa sifatida ta’kidlab o’tish joizki, Sadriddin Ayniy adabiy va ilmiy ijodining asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinar ekan, nasr va nazmda samarali ijod qilgan katta yozuvchi va ulkan shoir ekanligi ma’lum. S.Ayniy tarixchi, sharqshunos, adabiyotshunos va tilshunos olim sifatida fanning ko‘plab sohalarida tinimsiz izlanishlar olib bordi. Olim tadqiqotlarida o‘rta asrlarda yashagan o‘zbek va fors allomalari, shoirlari va olimlaridan boshlab, XX asr birinchi yarmidagi kichik zamondoshlar faoliyati ham o‘zining xolis talqinini topdi.

Shunday qilib, Sadriddin Ayniyning ijodiy yo‘nalishiga mansub barcha yirik asarlarida va maqolalarida Turkiston xalqlarining mushtarak ijtimoiy- iqtisodiy hayoti, ziddiyatlarga to‘la murakkab davri, inqilobiy harakatlar, maorif va madaniy yangiliklar, mahalliy xalqlarning og‘ir turmush-tarzi, urf-odatlar aks ettirilgan.

Sadriddin Ayniy murakkab va ziddiyatli bir davrda faoliyat ko‘rsatgan bo‘lishiga qaramay, atrofida kechgan ijtimoiy va siyosiy voqeliklarga o‘ta sinchkovlik bilan munosabatda bo‘ldi. Tarixchi adib, mashhur shoir, atoqli olim va o‘tkir publisist bo‘lgan S.Ayniy o‘zbek va tojik tillarida yaratgan asarlari bilan O‘zbekiston va Tojikistonning yangi tarixida, madaniyatida o‘chmas iz qoldirdi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ayniy S. Ajina asar karda ast. - Stalinobod: nashrdavtoj, 1935; Uning o‘zi: Iz proshlogo. - Toshkent: O‘zSSR, 1935.
2. Айний С. Масти // Бухорои шариф. 1912 йил, № 17, пайшанба, 30 март.
3. Айний С. Таърихи амирони манғитияи Бухоро. - Тошкент: Туркистон давлат нашриёти, 1923.
4. Ayniy S. Buxoro jallodlarining suhbatlari // Inqilob. 1922, № 3-8.
5. Ayniy S. Odina yoki bir kambag‘al tojikning sarguzashti (Istibdod xotiralaridan). - Toshkent: O‘zdavnashr, 1931.
6. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. - Moskva: SSSR xalqlari markaziy nashriyoti, 1926. B 3.
7. Hasanov M. Ayniy Chamani. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1981. - B. 168.
8. Сод. Айн. Мактуб аз Бухорои сурх // Шўълаи инқилоб, 1920, № 59, 2 декабрь. -Б. 3.
9. Turdiyev Sh. Ayniy va adabiy aloqalar / Ayniy zamondoshlari xotirasida. - Toshkent: 1978. - B. 171.